

INGLIZ VA QORAQOLPOQ TILLARINING METAFORIK XARAKTERDAGI KOMPARATIV FRAZEOLGIK BIRLIKLARI

Saparov Salamat Perdebaevich

NukusDPI Chet tillar fakulteti ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi o'qituvchisi

Komparativ barqaror birikmalar daraja va qiyosni ifodalash vositalarining boy tizimiga ega frazeologik birliklarning maxsus turi sifatida o'rganilishi mumkin, bu ularning nutq tizimida ta'sirchan nutqiy vositalar sifatida faollik ko'rsatishidan darak beradi. Komparativ frazeologik birliklar idiomatlashuvi turli darajada bo'lishi kuzatiladi, bu taqqoslanayotgan qismlardan birida yoki ikkala qismda so'zlar semantikasining uzualligi yoki okkazonalligi bilan bog'liq.

Komparativ iboralarga frazeologik birliklarning barqarorlik, takrorlanuvchanlik, obrazli motivlashganlik, ekspressivlik kabi xususiyatlari xos bo'ladi. Barqaror o'xshatishlarning aksariyati ularni tashkil etuvchi so'zlarning ma'nosi bilan motivlashgan obrazli birikmalardir. Motivlashgan komparativ frazeologik birliklar uchun individual muallif o'xshatishlardagi okkazonal obrazlardan farqli o'laroq uzual obrazlilik xos. Motivlashmagan komparativ frazeolog izmlarda, masalan, intesifikator o'xshatishlardagi kabi real motivlashuv va obrazlilik mavjud emas.

Ma'lumki, ma'noning metaforik siljishi zaminida hamisha qandaydir o'xshatish yotadi. Ingliz va qoraqolpoq tillaridagi komparativ frazeologik birliklarning semantik tahlili taqqoslash predmeti va uning obyekti o'rtasida o'xshashlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu adverbial komparativ frazeologik birliklarga ham xos:

1) predmetlar, narsalar bilan o'xshashlik: as safe as a church – tosh devorga suyanganday, as still as the grave – qabristondagiday tinch, sassiz;

2) hayvonlar, hasharotlar bilan o'xshashlik: as fit as a flea – «burga kabi sakraydi», sog'-salomat, (do) like a bird – bajonidil, hech ikkilanmasdan, hech qanday qarshiliksiz, oson, qiyinchiliksiz;

3) boshqa odamlar, adabiy yoki mifologik qahramonlar yoki ularning xususiyatlariga o'xshashlik: like a father – otalarcha, obro'li, qat'iy, lekin mehribon, like a Trojan – jasorat bilan, qahramonona;

4) tabiat obyektlari va hodisalari bilan o'xshashlik: as firm as a rock – tosh kabi qattiq, as night follows day – muqarrar, qochib qutulib bo'lmas;

5) mavhum, abstrakt tushunchalar bilan o'xshashlik: like the wrath of God – dahshatli, jirkanch, like a charm – sehrli, mo'jizaviy, ajoyib;

6) harakat tabiatidagi o'xshashlik: as easy as kiss your hand - osondan oson, oddiydan oson, oson, as easy/ simple as falling of a log – oddiy, juda oson.

Lisoniy vositalar yordamida muallif atrofdagi olamni ham, uning alohida hodisalarini ham ko'rishning o'ziga xos frazeologik modelini yaratadi. Ta'kidlash joizki, har qanday lisoniy ifoda voqelikni aks ettirish, his qilingan va his qilinayotgan narsalarning natijasidir. Avvalo, voqelikdagi har qanday o'zgarishlar va voqealar alohida individual mualliflik yoki okkazonal variantlarda o'z ifodasini topadi.

Dissertatsiyada metaforaning ma'nolari oddiy obrazli tasvirlar bilan motivlashgan, ular orqali denotat ham nomlanadigan, ham tavsiflanadigan frazeologik birikmalar va birliklarni shakllantirish jarayonidagi roli ko'zda tutiladi. [1]. Sxemalashtirish soddaligi orqali dunyoni tushunish imkoniyatini beradigan" metafora axborotni siqishtirish va kodlashning o'ziga xos kognitiv mexanizmi ekanligi haqidagi g'oya tadqiqotimizning asosini tashkil etadi [3]. Ma'lumki, metafora tarkibiga uning asosiy subyekti, metaforizator, ya'ni uning yordamchi subyekti, asosiy subyektning ba'zi o'ziga xosliklari va yordamchi subyektning xususiyatlari kiradi. Metafora "asosiy subyektga yordamchi subyektning atributlarini predikatlash orqali" yaratiladi [2]. Bu belgilar har doim ham muhim emas – odatda metafora madaniy va tarixiy hodisani ifodalovchi assotsiatsiyalar asosida yaratiladi, shuning uchun ular nafaqat turli xalqlarda bir-biriga mos kelmaydi, balki vaqt o'tishi bilan va bir xalq doyrasida ham tafovut yuzaga kelishi mumkin.

Biroq, til rivojlanishining har qanday davrida til egalari ongidagi etno-madaniy ongga xos bo'lgan qolipni tashkil etuvchi atrofdagi voqelik hodisalari haqidagi bilimlarning mavjudligi kerakli

belgilarni izlashning to‘g‘ri yo‘nalishini tanlashga yordam beradi. Turli xalqlarning lingvistik ongida assotsiatsiyalar bir-biriga mos kelsa, metafora va o‘xshatishlar ham bir-biriga to‘g‘ri kelishi mumkin, qiyoslang: ing. **as bald as brass** – qq. *beti qalín*, ing. **as clear as a bell** – qq. *soqirga tayaq uslatqanday* [5]. Bu holat esa frazeologik ekvivalentlarni shakllantirish imkoniyatini ochadi. Bu holatda, ingliz va qoraqalpoq tillari egalari ongida etalonlar – konnotatsiya tashuvchilari, ya‘ni muayyan obyektlarning barqaror belgi xususiyatlari (funktional, parametrik, psixologik va boshqalar), tushuncha tashuvchi muqobillar tasvirida mustahkamlangan muayyan predikativ ma‘nolar o‘zaro mos keladi. Demak, har qanday metaforik birlikning ma‘nosi (shu jumladan frazeologik) avval boshdan motivlashgan: u muayyan lingvomadaniyat egalariga ma‘lum metaforizatorning xususiyatlari bilan bog‘liq.

Frazeologizatsiya jarayonida metaforaning roli bir xil emas: V.V. Vinogradov tomonidan aniqlangan turli xil frazeologik birliklarda, [4]. ularning ma‘nolari idiomatikligi teng emas. Erkin iboralar idiomatizatsiyasining birinchi bosqichida frazeologik birikmalar shakllanadi. Ularning ma‘nosi qisman transformatsiya, ya‘ni leksik komponentlaridan birining ma‘nosidagi siljish natijasidir. Ushbu siljishning yo‘nalishi va natijalari leksik birlikning ko‘pma‘noliligi bilan belgilanadi. Ko‘pma‘noli so‘zning ma‘nolari bog‘liqligini “esda qoladigan va tizimlashgan material sintezi”dan iborat semantik to‘r sifatida tasavvur qilish mumkinligi sababli, yakunda yangi shakllangan frazeologik birikmaning ma‘nosi ham motivlangan bo‘ladi. Dastlabki ma‘no o‘zgarishlaridagi hal qiluvchi rolni ichki frazeologik aloqalar va munosabatlar o‘ynashi mumkin, ular frazema shakllanishining asosiy yo‘nalishlari va tabiati hamda derivatsion bazasining potentsial xususiyatlarining voqelanishini belgilaydi.

KAFB bo‘yicha eng so‘nggi tadqiqotlardan biri A.V. Terentyevning “Adyektiv komparativistik frazeologik birliklar lingvistik universalialar sifatida (ingliz tili materiali asosida)” [8]. tadqiqotidir, S.G. Karimovanning ingliz va rus tillarida metaforik xarakterdagi adyektiv frazeologik birliklarini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, o‘rganilayotgan FB asosidagi metaforizatsiya mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishini ham eslatish zarur [7].

S.G. Karimova ingliz va rus tillari materiallari asosida metaforik qayta anglangan adyektiv frazeologik birliklarning tarkibiy va semantik xususiyatlarini, metaforik ko‘chish mexanizmlarini, metaforizatsiyada frazeologik birliklar komponentlarining roli va metaforik xarakterdagi adyektiv frazeologik birliklarning okkazional variantlarini shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganadi.

KAFBning paradigmatic munosabatlari, adyektiv frazeologik birliklar sohasida polisemiyaning shakllanishi va metaforik ko‘chish roli o‘rganilganligi ishning yangiligini tashkil etadi, zero o‘rganilayotgan tillarda frazeologik birliklarning sifat komponentlari ilk bora qiyosiy o‘rganilgan. Masalan, shunday frazeologizmlar qatoriga quyidagilar kiradi:

Metaforaning tadqiqidagi zamonaviy nazariyasi asosida diafora va epiforalar orasidagi farqlarni aniqlash odatiy hodisa hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra adresatga ta‘sir qilish usuliga ko‘ra mazkur hodisa amalga oshiriladi (Qarang: Jadval):

Jadval

Ta‘sir qilish darajasiga qarab KAFBlarning metaforizatsiyaga o‘chrash holatlari

FB	Epifora metafora	Diafora metafora
between the wind and water	+	
ot penen suw arasında (qolaysız jaǵdayda)		+
over head and ears	+	
qazanda may tabaqta may (mo‘l-ko‘l)	+	+
Tamaǵı toq kiyimi kók (mo‘l-ko‘l)		+
shipshape and Bristol fashion	+	
bári bárjay (hammasi yaxshi).	+	+

Quleke táwip buyırǵanday (hammasi yaxshi)		+
Cat and run	+	
apıl topıl (apıl-tapıl)		+
urman turman (apıl-tapıl)		+

Metafora kognitiv-semantik hodisa bo'lib, strukturaviy-semantik va assotsiativ-kognitiv yondashuvlar yordamida izohlanadi. Metaforik ko'chimda komponentlar ma'nosining o'zaro ta'siri, jumladan inson bilimi tizimlashtirilib, aqliy jarayon natijasida o'z ifodasini topadi va bir xil darajada muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алефиренко Н.Ф., Золотых Л.Г. Проблемы фразеологического значения и смысла (в аспекте межуровневого взаимодействия языковых единиц). – Астрахань: Астраханский университет, 2004. – 296 с.
2. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
3. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 776 с.
4. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1997. – 312 с.
5. Джумамуратов Т. Русско-каракалпакский фразеологический словарь для школьников. – Нукус: Каракалпакстан, 1985. – 204 с.
6. Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1985. –160 b.
7. Каримова С.Г. Адъективные фразеологические единицы метафорического характера в английском и русском языках: Дис... канд. филол. наук. – Казань, 2007. – 169 с.
8. Терентьев А.В. Адъективные компаративные фразеологические единицы как языковая универсалия: На материале англ. яз: Дис... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 1997. – 352 с.

PICTURES OF THE WORLD CREATED BY LANGUAGE AND CULTURE

*Saitova Zaure Kaljanovna- NSPI. Faculty of foreign languages
Yusufova Mehriniso- 4-kurs NSPI. Ellikqala faculty of pedagogy*

Language, thinking and culture, while forming a single whole, correlate with the real world, oppose it, depend on it, reflect and simultaneously form it. Recently, a lot of works have appeared on the issues of Linguoculturology and Linguistics. According to professor S.G. Ter-Minasova, the world around the world is represented in three forms:

- real picture of the world,
- cultural (conceptual) picture of the world,
- linguistic picture of the world [3:47].

She gives the following diagram:

Real world	Thinking / Culture	Language / Speech
Subject, phenomenon	Imagination, concept	Word

The general concept of *the picture of the world* means "an ordered set of knowledge about reality, formed in the public (as well as group, individual) consciousness". The real picture of the world is an objective extra-human reality, this is the world surrounding the person.

The cultural (conceptual) picture of the world is a reflection of the real picture of the world through the prism of concepts formed on the basis of human representations, received with the help of sense organs and passed through his consciousness, both collective and individual. The cultural picture of the world is specific and different for different peoples. This is due to a number of factors: geography, climate, natural conditions, history, social structure, beliefs, traditions, way of life, etc.